

**MIGRATSIYA VA FUQAROLIKNI RASMIYLASHTIRISH  
SOHASINING NAZARIY ASOSLARI**

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat  
xavfsizligi universiteti  
3-bosqich kursanti  
Narziloyeva Shahlo Nodir qizi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada migratsiya qanday tushuncha ekanligi, uning ahamiyati, migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish sohasining vujudga kelishi, zarurati, nazariy jihatlarini ya'ni sohaga oid milliy qonunchilik, shu bilan birga xalqaro qonunchilikdagi tegishli normalar, mazkur sohaning davlat boshqaruvidagi o'rnini va ahamiyati haqida fikr yuritildi.

**Kalit so'zlar:** migratsiya, fuqarolik, rasmiylashtirish, qonun, qonunosti hujjatlar, normalar, soha, davlat boshqaruvi, pasport, identifikatsiyalovchi ID-kartalar, xalqaro normativ-huquqiy hujjatlar.

**Abstract:** This article discusses the concept of migration, its importance, the emergence, necessity, theoretical aspects of the field of migration and citizenship formalization, that is, national legislation related to the field, as well as relevant norms in international law, the role and importance of this field in public administration.

**Keywords:** migration, citizenship, formalization, law, by-laws, norms, field, public administration, passport, identification ID cards, international regulatory legal acts.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается концепция миграции, ее значение, возникновение, необходимость, теоретические аспекты сферы миграции и формализации гражданства, то есть национальное законодательство, относящееся к этой сфере, а также соответствующие нормы международного права, роль и значение этой сферы в государственном управлении.

**Ключевые слова:** миграция, гражданство, формализация, право, подзаконные акты, нормы, сфера, государственное управление, паспорт, удостоверения личности, международные нормативно-правовые акты.

Yer yuzi bo'ylab aholining bir joydan ikkinchi joyga ko'chishi, har doimgidek, shakli va mazmuni jihatidan tabiiy jarayonga aylanib bo'lgan. Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, muayyan davrlarda migratsiyaning asosiy sabablari urushlar, iqtisodiy, siyosiy, geografik omillar yoki iqlim o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan. Yangi hududlarning o'zlashtirilishi siyosiy jihatdan ushbu hududlarda imperiyalarning mustamlakachilik kayfiyatini paydo qilgan. Hozirda esa, migratsiya jarayonlari mazmun jihatdan tarixdagiga qaraganda anchagina farq qiladi. Hozirda migratsiya

mehnat qilish, ta'lim olish, turizm ya'ni sayohat, dam olish, davolanish, ishbilarmonlik, xizmat safari va yana bir qator maqsadlarda amalga oshirilmoqda.

“Miratsiya” atamasi lotincha “migration” soʻzidan olingan boʻlib, aholining mamalakat doirasida bir joydan boshqa joyga yoki bir mamlakatdan boshqa mamlakatga koʻchishi yoki koʻchirish maʼnolarini bildiradi. Aslida mazkur atama ilk marotaba 1332-yilda faransuz huquqshunsi Jan Vine tomonidan lotin tilidan tarjima qilingan “Tarixiy oyna” nomli asarida ishlatilganligi haqida turli maʼlumotlar mavjud. Hozirgi zamon lugʻatlari va boshqa adabiyotlarda ham shunga oʻxshash taʼrif koʻp uchraydi. Masalan, internet tarmoqlarida: “migratsiya atamasi lotincha *migratio* – koʻchaman, joyimni oʻzgartiraman maʼnosini anglatadi<sup>1</sup>”,-deyilgan.

Aholi migratsiyaning sabablari har xil boʻlishi mumkin. Lekin, aholini bir joydan ikkinchi joyga koʻchib yurishga asosiy sabablar sifatida ularning mamlakatidagi iqtisodiy va siyosiy jarayon, vaziyatlarni keltirishimiz mumkin. Masalan, iqtisodiy tomomnlama ish qidirib moddiy axvolini yaxshilash maqsadida bir rayondan ikkinchi rayonga yoki boshqa mamlakatga koʻchishi, siyosiy vaziyat tomomnlama qaracak, milliy yoki diniy eʼtiqodga koʻra quvgʻin ostiga olinishi natijasida, davlatlar oʻrtasidagi chegaralarning oʻzgarishi yoki harbiy harakatlar davom etayotgan hududlardan boshqa joylarga koʻchib oʻtish, davlatlar oʻrtasidagi millatlar vakillarini ayirbosh qilish kabilarni aytishimiz mumkin.

Mamlakatdagi migratsiya jarayonlarini tartibga solish uchun bir hududdan boshqasiga koʻchganda shaxslar roʻyxatga olinadi. Bizning mamlakatimizda Oʻzbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi boʻlmagan shaxslarni roʻyxatga olish uchun har biriga alohida tartib va muddatlar belgilangan.

Jumladan, Oʻzbekiston Respublikasi fuqarolari yangi yashash joyiga kelgan kundan eʼtiboran **oʻn besh kun** ichida ichki ishlar organlarining migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish boʻlinmalari, Davlat xizmatlari markazlari yoki Oʻzbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalini orqali doimiy yoki vaqtincha roʻyxatdan oʻtishlari shart.

Fuqarolar doimiy roʻyxatga oʻtishni rasmiylashtirish uchun oʻzlariga qulay boʻlgan Qoraqalpogʻiston Respublikasi hamda viloyatlar tuman (shahar) ichki ishlar boshqarmasining (boʻlimining) migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish boʻlinmalariga yoki Davlat xizmatlari markazlariga murojaat qilishlari yoxud Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalidan foydalanishlari mumkin.

Fuqaroni viloyatlarda vaqtincha turgan joyi boʻyicha roʻyxatga (vaqtincha roʻyxat) olish fuqaroning doimiy roʻyxatini bekor qilmagan holda, mulkdorning arizasiga koʻra yoki soliq idoralarida hisobga olingan ijara shartnomasida koʻrsatilgan,

<sup>1</sup> <https://uz.wikipedia.org/wiki/Migratsiya>.

biroq bir yildan ortiq bo‘lmagan muddatga amalga oshiriladi. Doimiy ro‘yxatga olinmaganlik vaqtincha ro‘yxatga olishni rad etish uchun asos hisoblanmaydi.<sup>2</sup>

Chet el fuqarolarini va fuqaroligi bõlmagana shaxslarning vaqtincha ro‘yxati — chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni joylashtirish vositalari, davolash muassasalarida vaqtincha hisobga olish yoki ichki ishlar organlarining Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo‘linmalari tomonidan xususiy uy-joy, korxonalar, tashkilot va muassasalar tasarrufidagi yotoqxonalarda vaqtincha turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatga olish hisoblanadi<sup>3</sup> Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar ichki ishlar organlarining Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo‘linmalari, joylashtirish vositalari yoki davolash muassasalari orqali vaqtincha ro‘yxatga olinadilar. Vaqtincha ro‘yxatga olingan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga jismoniy shaxs shaxsiy identifikatsiya raqami ro‘yxatga olingan hududiy migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo‘linmalari tomonidan ularning yozma murojaatlariga asosan beriladi va ular ro‘yxatga olingan joylarida yashashlari lozim.

Vaqtincha ro‘yxatga olinishning muddati chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmagan shaxs O‘zbekiston Respublikasi Davlat chegarasi nazorat-o‘tkazish punkti orqali kirib kelgan sanadan keyingi kunning **00:01** soatidan boshlab hisoblanadi.

Xalqaro normative-huquqiy hujjatlarga anazar soladigan bo‘sak, migrantlar va ularning huquqlarini himoya qilishga alohida e‘tibor qaratilganini ko‘rishimiz mumkin.

Xususan, 28.07.1951 BMT ning “Qochoqlar maqomi to‘g‘risida”gi konvensiyasida qochoqlar tushunchasi, umumiy majburiyatlari, ularni kamsitishga yo‘lqoymaslik, diniy e‘tiqodlari, huquqlari va yana bir qator jihatlar qamrab olingan<sup>4</sup>

BMT 1990-yil 18-dekabrda Barcha mehnatkash migrantlar va ularning oila a‘zolari huquqlarini himoya qilish to‘g‘risidagi konvensiyani qabul qilgan. Bu xalqaro hujjat migrantlarning inson huquqlari, mehnat sharoitlari va ijtimoiy himoyasini ta‘minlash, ularni kamsitishdan saqlash hamda oila a‘zolari (turmush o‘rtog‘i, farzandlari) huquqlarini kafolatlashga qaratilgan.

Undan tashqari, barcha normativ huquqiy hujjatlar uchun yuridik asos bo‘lgan Konstitutsiyamizga yuzlanish maqsadga muvofiq sanaladi.

---

<sup>2</sup> 29.12.2021 VMQ- 785-son Fuqarolarni doimiy yashash va turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatga olish tartibining takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida

<sup>3</sup> 28.09.2020. VMQ-593-son O‘zbekiston Respublikasida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni ro‘yxatga olish tartibini soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida

<sup>4</sup> 28.07.1951 BMT ning “Qochoqlar maqomi to‘g‘risida” (<https://www.lex.uz/ru/docs/-7354720>)

Konstitutsiyamizning VI bobi Fuqarolik deb nomlanadi. Undagi 22-moddasida O‘zbekiston Respublikasining butun hududida yagona fuqarolik o‘rnatilishi, O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi, unga qanday asoslarda ega bo‘lganlikdan qat’i nazar, hamma uchun tengligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasining fuqarosi ayni vaqtda O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi hisoblanishi, fuqarolikka ega bo‘lish va uni yo‘qotish asoslari hamda tartibi qonun bilan belgilanishi kabi jihatlar aks ettirilgan.

23-moddasida esa, O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida ham, uning tashqarisida ham o‘z fuqarolarini himoya qilish va ularga homiylik ko‘rsatishni kafolatlashi,

O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi O‘zbekistondan tashqariga majburiy chiqarib yuborilishi yoki boshqa davlatga berib yuborilishi mumkin emasligi,

Davlat xorijda yashayotgan vatandoshlar bilan aloqalarni saqlab qolish hamda rivojlantirish to‘g‘risida xalqaro huquq normalariga muvofiq g‘amxo‘rlik qilishi kabi jihatlar, Qonunda belgilangan shaxslar vaqtincha ro‘yxatdan ozod qilinishi ham mumkin. Masalan,

24-moddasida esa, O‘zbekiston Respublikasi hududidagi chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning huquq va erkinliklari xalqaro huquq normalariga muvofiq ta‘minlanishi, ular O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari va xalqaro shartnomalari bilan belgilangan burchlarni ado etishlari kabi jihatlar qamrab olingan.<sup>5</sup>

Keyingi o‘rinlarda O‘zbekiston Respublikasi qonunlari va qonun osti hujjatlarni ham huquqiy asos sifatida ta’kidlashimiz mumkin.

**O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolik to‘g‘risida”gi Qonuni 1992-yil 2-iyul kuni qabul qilingan.** Keyingi yillarda bir necha marta qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritilgan. Jumladan 2020-yil 13-martda esa yangi tahrirda qabul qilingan. Mazkur qonunda fuqaro so‘ziga ta’rif berilgan, fuqarolikni qabul qilish yo‘qotish, tiklash, chiqish asoslari va shartlari keltirilgan. Bu qonunning maqsadi fuqarolarning huquqlarini himoya qilish, davlat va shaxs o‘rtasidagi huquqiy munosabatlarni mustahkamlash, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar (apatridlar) sonini kamaytirishga xizmat qiladi.

O‘RQ-692-son "**O‘zbekiston Respublikasida chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning huquqiy holati to‘g‘risida**" gi 2021-yil 4-iyun kuni qonun qabul qilingan. Mazkur qonunda chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar tushunchalari va ularning ijtimoiy ta‘minot, sog‘lqni saqlash, ta’lim olish huquqlari shu bilan birga javobgarlik masalalari tartibga solingan.

<sup>5</sup>30.04.2023.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (<https://lex.uz/docs/-6445145?otherlang=1>)

O‘RQ-1074-son “ O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini, chet el fuqarolarini hamda fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni yashash joyi va turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risida” 2025-yil 10-iyul kuni qonun qabul qilingan. Mazkur Qonunning maqsadi O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini, chet el fuqarolarini hamda fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni yashash joyi va turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazish bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish sohasining ildizlari uzoq tarixga borib taqaladi va mazkur soha asrlar davomida insoniyat bilan bir xil tarzda rivojlanib kelmoqda. Migratsiya sohasi nafaqat bir joydan ikkinchi joyga ko‘chish balki yirik davlatlar o‘rtasidagi hamkorlik va insoniyat hayotining iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy hamda demografik jarayonlariga ham katta ta‘sir ko‘rsatadi va ularni bevosit o‘z ichiga qamrab oladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Migratsiya>.
2. 29.12.2021 VMQ- 785-son Fuqarolarni doimiy yashash va turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatga olish tartibining takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida
3. 28.09.2020. VMQ-593-son O‘zbekiston Respublikasida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni ro‘yxatga olish tartibini soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida
4. 28.07.1951 BMT ning “Qochoqlar maqomi to‘g‘risida” (<https://www.lex.uz/ru/docs/-7354720>)
5. 30.04.2023.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (<https://lex.uz/docs/-6445145?otherlang=1>)